

## BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA KASBIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

B.X.Baydjanov

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

FarDU pedagogika va psixologiya fakulteti dekan

Maxmudova Maftunaxon Baxromjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi(faoliyat turlari bo'yicha)

magistratura mutaxassisligi kafedrasi talabasi.

[Maftuna.bahromovna.m@gmail.com](mailto:Maftuna.bahromovna.m@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari yoritib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** Jismoniy tarbiya, pedagog, pedagogik, kasbiy sifatlar, bilim, ko'nikma, malaka.

**Аннотация:** В статье освещены педагогические возможности развития профессиональных качеств будущих учителей физического воспитания.

**Ключевые слова:** Физическое воспитание, педагог, педагогические, профессиональные качества, знания, умение, квалификация.

**Annotation:** The article highlights the pedagogical opportunities for developing the professional qualities of future physical education teachers.

**Key words:** Physical education, teacher, pedagogical, professional qualities, knowledge, skill, qualification.

Muhtaram prezidentimiz sportni rivojlantirish mavzusiga alohida to'xtalib, ta'lrim va tarbiya ishlarini sport va jismoniy tarbiya bilan uyg'un ravishda olib borish shart ekanini ta'kidlaganlar. Sport sog'likni mustahkamlabgina qolmay, balki, hayot sinovlaridan, turli ruxiy va mafkuraviy xujumlardan mardonavor o'tish yo'lida mustahkam qalqon bo'lувчи irodani ham toblaydi.

Avlodlar tarbiyasi jarayonida o'z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchilarga individual yondasha oladigan, a'lo darajadagi kasbiy sifatlarga ega bo'lgan, yuksak saviya, bilim va ma'naviyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy bo'g'ini bo'lgan bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari ta'lim tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi zarurdir.

Ta'kidlash joizki bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini rivojlantirish juda dolzarb masala. Bugungi kunda Oliy ta'lim muassasalarida ko'plab muammolarga yechimlar izlanmoqda. Shu bilan birga ushbu masalada ham turli xil amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Pedagogika darslarini

chuqurlashtirilgan sura'tda o'qitilish nazoratga olinmoqda. Talabalar bilan o'qituvchilar o'rtasida do'stona muhit yaratilishiga undalmoqda. Boshqa Oliy ta'lif muassasalaridan malakali pedagog olimlarni dars jarayonlariga bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining malaka o'zlashtirishlari uchun olib kelinmoqda. Albatta bu sa'yid harakatlar o'z samarasini bermay qo'ymaydi. Talabalar malakali, intiluvchan, obro'li pedagoglar bilan muloqot olib borgach albatta ilhomlanadilar.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy jihatlarini yaxshilash uchun sohaga doir nazariy ma'lumotlarni olishlari,pedagogik kuzatishlar,nazorat testlari,mavzu yuzasidan adabiyotlar o'qib o'rganishga,hayotda to'g'ri maqsad qo'yishga,o'z ustida ishlashga bo'lgan xohish va istaklarini uyg'otish zarurdir.

Asrimizning zamonaviy jismoniy madaniyat o'qituvchilarini ushbu vazifalarni hal etish uchun tashkiliy jihatdan ham,mazmuniy jihatdan ham jismoniy tarbiya pedagoglarining vazifalarini,ma'suliyatini,o'zining bo'lajak kasbiy faoliyatini chin qalbdan xis etmog'i zarur.Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida kasbiy kompetentlikni shakllantirish zaruriy vazifa hisoblanadi.

Ta'lif maqsadi bo'lajak o'qituvchilarining nazariy bilimlari va ijodiy qobiliyatlarining maqbul uyg'unligini ta'minlashi kerak, bu ularga ta'lif muassasasini tugatgandan so'ng, o'z ta'lif va kasbiy tayyorgarlik darajasini mustaqil ravishda oshirishga, muammolarni hal qilishning tubdan yangi echimlarini topishga imkon beradi. fan va amaliyot muammolari. Tadqiqot quyidagi nazariy usullardan foydalangan holda amalga oshirildi: tizimli tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish va tizimlashtirish, ideallashtirish va abstraksiya. Tadqiqot natijasida jismoniy tarbiya va sport talabalari o'rtasida kasbiy kompetentsiyaning asosiy jihatlari aniqlandi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, pedagogika oliy ta'lif muassasasining muhim masalalaridan biri bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarini kasbiy sifatlarini rivojlantirishdir. Chunki sog'lom bilimga ega bo'lgan o'qituvchilar,sog'lom avlodni tarbiyalashda mustahkam pillapoya vazifasini o'taydi desak mubolag'a bo'lmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ataev A.K.Kurash.O`quv qo`llanma.-T., 1987 y
2. Abdumalikov R., Jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning nazariy asoslari. O`quv qo`llanma, -T., O`zDJTI nashriyoti
3. Abdumalikov R., Abdullaev T., va boshqalar. Jismoniy tarbiya ta`limi ilmini takomillashtirish masalalari. Metodik qo`llanma. T., O`zDJTI nashriyoti 1996 y